


Adabiyot fanidan "Ruhlar isyoni" dostoni tahlil qilinib, uning tarbiyaviy ahamiyati sahna ko'rinishlari orqali yanada yorqinroq ochib berildi

SamDCHTI akademik litsey **202-guruhda** ona tili va adabiyot fanlariga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida **Unarova Dilafruz Abdimajit qizi tomonidan** 2 va 20-dekabr kunlari o'tkazilgan ochiq darslar haqiqiy innovatsion yondashuvning namunasi bo'ldi.

Adabiyot fanidan **"Ruhlar isyoni"** dostoni tahlil qilinib, uning tarbiyaviy ahamiyati sahna ko'rinishlari orqali yanada yorqinroq ochib berildi. Ona tili fanida esa "Bog'langan qo'shma gaplar" mavzusi interfaol metodlar yordamida qiziqarli tarzda yoritildi. **"Tomchi", "Cho'ntak", "Puzzle", "Mushoira", "Sanalar jadvali"** kabi metodlar o'quvchilarning faolligini oshirsa, "Tabassum qil" va "O'rgimchak to'ri" kabi uslublar ular orasida muloqot va hamkorlikni kuchaytirdi.

Mazkur darslar nafaqat bilim ulashish, balki o'quvchilar qalbiga ezgulik urug'ini ekish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qildi. Ta'limga bo'lgan bunday yondashuv albatta tahsinga sazovor!"













SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati